
“ZUKKO KITOBXON” TANLOVI O‘TKAZILDI



Qo‘sh tepa tumani Adliya bo‘limi va tuman Axborot-kutubxona markazi bilan hamkorlikda otaliqqa olingan “Yangi ariq”, “Ko‘prikboshi”, “Qo‘rg‘oncha”, “Shakar”, “Mumtoz” va “Istiqlol” mahallalaridagi yoshlar o‘rtasida “Zukko kitobxon” tanlovi o‘tkazildi.

O‘tkazilgan tanlovning birinchi bosqichida ushbu mahallalardagi maktab o‘quvchilari hamda 30-yoshgacha bo‘lgan yoshlar ishtirok etishdi.

“Zukko kitobxon” tanlovida 1-o‘rinni Asrorbek Mirzajonov qo‘lga kiritib musobaqaning viloyat bosqichiga yo‘llanmani qo‘lga kiritdi.

2-o‘rinni esa Komiljon To‘xtanazarov, 3-o‘rinni Aziza Abduhamidovalar egalladi. G‘oliblar diplom va esdalik sovg‘alari bilan taqdirlandilar.

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#),

2024-07-16 11:22:41